

“AYOLLAR GALEREYASI”: O‘ZBEK RANGTASVIRIDA AYOL SIYMOSINING QAHRAMONLIK VA NAFOAST RAMZI SIFATIDA KO‘RSATILISHI

Robijonov Diyorbek

Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek rangtasvirida ayol siymosining qahramonlik va nafoast ramzi sifatida ifodalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy va zamonaviy san‘at namunalaridan foydalanib, ayol obrazining milliy-madaniy, ijtimoiy va psixologik jihatlari o‘rganiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ayol siymosi nafaqat estetika va go‘zallik ramzi, balki jamiyatning ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy o‘zgarishlarini aks ettiruvchi kuchli simvol sifatida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *ayol siymosi, qahramonlik ramzi, nafoast ramzi, o‘zbek rangtasviri, milliy madaniyat.*

Аннотация: *В статье анализируется изображение женской фигуры в узбекской живописи как символа героизма и нафоаста. В исследовании рассматриваются национально-культурные, социальные и психологические аспекты женского образа на примере исторического и современного искусства. Результаты показывают, что женская фигура является не только символом эстетики и красоты, но и мощным символом, отражающим духовные ценности и социальные изменения общества.*

Ключевые слова: *женская фигура, символ героизма, символ нафоаста, узбекская живопись, национальная культура.*

Abstract: *This article analyzes the representation of the female figure in Uzbek painting as a symbol of heroism and nafoast. The study studies the national-cultural, social and psychological aspects of the female image using historical and contemporary art samples. The results show that the female figure is not only a symbol of aesthetics and beauty, but also a powerful symbol reflecting the spiritual values and social changes of society.*

Keywords: *female figure, symbol of heroism, nafoast symbol, Uzbek painting, national culture.*

KIRISH

O‘zbek rangtasviri boy tarix va madaniy merosga ega bo‘lib, unda ayol siymosi ko‘plab ma’nolarni ifodalaydi. An’anaviy o‘zbek san’atida ayol obrazlari nafaqat go‘zallik ramzi, balki jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarni, milliy tarixiy voqealarni va insoniy xislatlarni ifodalovchi kuchli simvol sifatida namoyon bo‘ladi[1]. Ayol siymosi ko‘pincha ikki asosiy yo‘nalishda tasvirlanadi: birinchisi, qahramonlik – jasorat, fidoyilik

va milliy g'urur ramzi sifatida; ikkinchisi, nafoastlik – estetik go'zallik, nafislik va ruhiy boylikni ifodalovchi ramz sifatida. Ushbu ikki yo'nalish san'atkorlar tomonidan turli davrlarda turlicha talqin etilgan bo'lib, ular o'zbek rangtasvirining milliy va madaniy o'ziga xosligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy nuqtai nazardan, o'zbek rangtasvirida ayol qahramon sifatida ko'plab tarixiy epizodlar va kurash sahnalarida tasvirlangan. Bu holat, ayniqsa, milliy istiqlol harakatlari va mahalliy qadriyatlarni aks ettiruvchi asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, ayol obrazining nafoast jihatlari ko'pincha tabiiy manzaralar, bayramlar yoki kundalik hayot sahnalarida ifodalanib, san'atkorning estetik didi va nafislikni qadrlashini aks ettiradi [2]. Bu ikki yo'nalish o'zaro uyg'unlashgan holda, o'zbek rangtasvirida ayol siymosining chuqur ma'nosini yaratadi.

Zamonaviy o'zbek san'atida ham ayol siymosi o'z o'rnini saqlab qolgan bo'lib, u nafaqat estetik jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham muhim rol o'ynaydi. Rassomlar ayol obrazini qahramonlik va nafoast ramzi sifatida talqin qilish orqali milliy qadriyatlarni zamonaviylik bilan uyg'unlashtiradi. Shu bois, o'zbek rangtasvirida ayol siymosi bilan bog'liq tadqiqotlar milliy madaniyat, san'at va jamiyatni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu maqola o'zbek rangtasvirida ayol siymosining qahramonlik va nafoast ramzi sifatida aks etishini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida tarixiy va zamonaviy asarlar, galereya kolleksiyalari hamda madaniy kontekst tahlili asosida ayol obrazining estetik, ijtimoiy va psixologik jihatlari o'rganiladi. Shu yo'l bilan maqola o'zbek rangtasviridagi ayol obrazining milliy-madaniy va san'atni ahamiyatini yanada chuqurroq ochib beradi.

Yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga ko'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.[2]

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasida san'atning hususan tasviriy san'atning o'ri va ahamiyati beqiyosdir. San'at insonning madaniyatini, ma'naviyatini, dunyoqarashini rivojlantiradi.

Rassom imkoniyatlari benihoya cheksiz. U gul yaproqlarining nozik titrog'i va cheksiz koinotni, kundalik turmush tashvishlari va jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan voqea-hodisalami tasvirlay olish imkoniga ega. Unda yuzlab kvadrat metr keladigan tasvirlar, yirik toshlardan haykal yasay olish malakalari mavjud. U bug'doy donasi sathiga portret chizishi va jimjiloqdek keladigan haykalcha yasay olishi mumkin. Ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun rassom o'nlab ashyolardan foydalangan holda, yangi imkoniyatlarni ochish uchun tirishadi. Qalam va moybo'yoqlar, loy va oltin, qog'oz va oyna, mato va po'lat - bularning barchasi ijodkoming qo'lida san'at asariga aylanadi.[3]

Tasviriy san'atning bir nechta tur, janrlari mavjud bo'lib, har birining o'z ahamiyati va tomoshabini bor. Ayniqsa portret janri rassomlarning ko'p murojat qiladigan va tomoshabini ko'pligi bilan ajralib turadi.

Portret-janrlar ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Portret janrida ayol, ona obrozi o'lmas, qadimiy va sevimli obrazdir. Chunki tasviriy san'atda ayol obrozi bu-mehr-muhabbat, vafo, sadoqat, iroda, matonat, sabrushihoat va hayot davomchisi sifatida tasvirlanadi. Qadimdan ayol obrozi Sharq va Yevropa mamlakatlarida ham go'zallik, nafosat, muhabbat timsoli bo'lib e'zozlangan.

Deyarli barcha rassomlarning ijodida ayol, ona obrazini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib Usta Mo'min, A.Volkov, P.Benkov, M.Nabiyev, A.Abdullayev, L.Abdullayev, Ch.Ahmarov, B.Jalolov, R.Ahmedov, A.Nur va boshqalarni keltirishimiz mumkin.


Ayniqsa Rahim Ahmedovning ijodida ona obrozi nihoyatda ta'sirli va jonli ifodasini ko'rishimiz mumkin. Ijod namunalari ichida ayniqsa "Tong, Onalik" asari rassomning shox asarlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarda tongning mo'jizakor lahzasida, shirin uyquda bo'lgan bolasini issiq bag'rida emizayotgan o'zbek ayoli aks ettirilgan. Asarda inson va tabiat uyg'unligi zeb-ziynatu bezaklarsiz aks ettirilgan yashil ko'ylak kiygan, ro'moli boshidan sirgalib tushgan, ikki o'ram sochi elkasiga tashlangan ayol qiyofasi tomoshabinni o'ziga tortadi. Vatan tinchligi, ayolning ruhiy xolatida namoyon bo'lgan, xotirjam, baxtiyor ona, oila ona tabiat bag'rida ko'rsatilgan. Tasvirdagi asosiy g'oya elementlari tabiat, ona, tong va go'dak bolani tashkil etadi. Ya'ni tabiat, ona bola va tong go'zalligi jami olam go'zalligini anglatadi.



Rahim Ahmedov "Tong.Onalik."

1956 yili Rahim Ahmedov Birchmulla qishlog'ida, ikki o'g'li hamda turmush o'rtog'i frontdan qaytmagan, mehnatda qaddi bukilmagan mardona kekxa ayol portreti, "Ona o'ylari" asarini yaratdi. Ayol ko'pincha qariyalarga xos o'tirar, hayolga cho'mar edi. Ayol kechinmalari, onadan yosh etim qolgan Raxim akaning bag'rini to'lqinlantirib, mehr, chuqur hurmat uyg'otdi. "Ona o'ylari" portreti kompozitsiyasida, figura biroz

oldinga chiqqan. Yong`oq daraxti yonida yostiqqa suyanib tizza ko`ziga qo`l panjalarini saranjom qo`yib, hayolga cho`mgan ayol qiyofasi, kompozitsiya jihatidan klassik mavqeiga ega, juda muvafaqqiyatli topilgan. Ayolni yuzidagi chuqur ruhiy holatni, uning g`amgin yuzidagi katta yorug` ko`zlarida, mehnatda toblangan yuz chexrasida xaykalga xos o`z ifodasini topgan. Gavda, siluet aniq, yengil ranglardagi manzara fonida, ko`k, binafsha, pushti, yashil, sariq ranglarda shiddatli maxorat bilan tasvirlangan.



Rahim Axmedov "Ona o`ylari"

P.Benkov ham o`z ijodida ayol obroziiga ko`p bora murojat etkan. Uning "Xivalik qiz", "Uzum uzush", "Dugonalar" kabi asarlari mashhurdir. "Xivalik qiz" asarida peshin payti, charog'on quyosh nuriga g'arq cho`milgan Xiva xovlilarining birida o`smir qiz charx yigirib o`tiribdi. Uning egnida guldor ko`ylak, boshida chiroyli do`ppisi. Ko`zlarini diqqat bilan boqishi, boshi sal egilganligi, qo'llarning harakati, uning berilib ishlayotganidan dalolat berib turibdi. Surat bo`yoqlarining yorqinligi, uni erkin uslubda ishlaganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chuqur xis etamiz. Bu asarni o`zbek tasviriy san'atida birinchi realistik ijod namunasi deyish mumkin. O`z paytida u Tretyakov davlat galereyasining doimiy ekspozitsiyasidan o`rin olgan edi.



P.Benkov "Xivalik qiz" asari

Bugungi kunda ham ko`pkina rassomlarimiz o`z asarlarida ayol va ona obrozini tasvirlab kelishmoqda. Ayniqsa Akmal Nurning ijodida ayol o`zgacha joziba, nafosat, beg`ubor va jonli tasvirlanganini ko`rishimiz mumkin. Rassomlarning har bir asarida

ramziylik va falsafiy yechim mavjud. Quyida A.Nur ijodidan “Umid farishtasi” asarini badiiy-psixologik tahlil qilamiz.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek rangtasvirida ayol siymosi ikki asosiy ramz orqali ifodalanadi: qahramonlik va nafaostlik. Qahramonlik ramzi orqali ayol obrazlari jasorat, fidoyilik va milliy g'ururni aks ettiradi, ko'pincha tarixiy voqealar va kurash sahnalarida markaziy rol o'ynaydi. Nafaost ramzi esa estetik go'zallik, nafislik va ruhiy boylikni ifodalaydi, u zamonaviy asarlarda tabiiy manzaralar, bayramlar yoki kundalik hayot sahnalarida tasvirlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek rangtasviridagi ayol obrazining qahramonlik va nafaost jihatlari bir-birini to'ldiradi va san'at asarining hissiy, estetik hamda madaniy mazmunini boyitadi. Shu bilan birga, ayol siymosi milliy-madaniy qadriyatlarni, tarixiy tajribalarni va zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi muhim simvol sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, o'zbek rangtasvirida ayol obrazini o'rganish nafaqat san'atshunoslik sohasida, balki milliy madaniyat va ijtimoiy tarixni chuqurroq anglashda ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari ayol siymosining o'zbek san'atidagi o'rnini va uning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini yanada ravshan ko'rsatadi, shuningdek, kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun yangi yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'rayev M. *O'zbek rangtasvirida ayol siymosi va milliy madaniyat*. Toshkent: San'at nashriyoti, 2018. 152 b.
2. Abdullayeva Sh. *Ayol obrazining zamonaviy o'zbek rangtasvirida ifodalanishi*. Toshkent: Ilmiy nashr, 2021. 198 b.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.-T.: Tasvir.-2021. -11 b.
4. Egamov A. Kompozitsiya asoslari.-T.: San'at-2005.-5 b.
5. Xasanov R. Tasviriy san'at asoslari. –T.: G'ofur G'ulom nashryot uyi. -2009, -17 b.